



XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Chiroqchi +998 99 685 8626 kengashchiroqchi@gmail.com

2025-yil 28-fevral

VII-7-31-4-66-K/25

Chiroqchi tumani

2025-yilda Chiroqchi tumanida birinchi bosqichda ishga tushiriladigan drayver loyihalarning manzilli dasturi to'g'risida

Chiroqchi tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, "yashil" tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmoniga asosan hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Chiroqchi tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "drayver" loyihalarni 2025-yil birinchi bosqichda amalga oshiriladigan dastlabki manzilli ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

- tuman hokimining o'rinbosarlari, tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari "Zarbdor" tajribasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishiga mas'ul etib belgilansin.

- ushbu qaror ilovasida qayd etib o'tilgan "drayver" loyihalari uchun ajratilishi ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida bajarilgan ish hajmiga nisbatan ajratilgan mablag'lardan ortgan qismini boshqa loyihalarni mablag' bilan ta'minlash uchun tuman hokimining birinchi o'rinbosariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolatlari berilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, sektor rahbarlari “Zarbdor” tajribasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin hamda har chorakda dastur ijrosi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi yig‘ilishlarida hisoboti eshitib borilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Ergashev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Avlayorov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



YUSUPOV FAYZULLA
YAKUBOVICH

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-7-31-4-66-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Chiroqchi tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "drayver" loyihalarni amalga oshirish uchun
DASTLABKI MANZILLI RO'YXATI**

Shakllantirilgan			O'rganilgan									
Loyiha soni	"Drayver" loyihalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha nomi	Ish turi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni	Loyiha quvvati jami		shu jumladan		Loyiha (obyekt)ning dastlabki qiymati (mln so'm)	shundan	
						O'lchov birligi	Miqdori	yangi qurilish	rekonstruksiya		Respublika budjeti	Mahalliy budjet
3	Chiroqchi tumani				6					4050	4050	
1	"Iftixor" mahallasi hududidagi hokimlik zahirasidagi 1,2 gektar bo'sh yer maydonda temirchilikka ixtisoslashgan sanoat markazi tashkil etish.	Yangiqurish MFY	Elektr tarmoqlari tortish	Transformator o'rnatish	1	dona	2	2		90	90	
			Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	piyodalar yo'lagi qurish	1	km	1,0	1,0		500	500	
				ko'cha chiroqlari o'rnatish		dona	45	45		120	120	
2	"Choshtepa" MFY hududidan o'tgan "Chiroqchi" ko'chasini 1,2 km qismini 24/7 rejimida ishlaydigan ko'chaga aylantirish	Choshtepa MFY	Yo'l infratuzilmasini yaxshilash	Asfaltlash	1	km	1,0		1,0	900	900	
		Choshtepa MFY	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	piyodalar yo'lagi qurish	1	km	2,0		2,0	600	600	

	.	Choshtepa MFY		ko'cha chiroqlari o'rnatish		dona	60	60		180	180	
3	"Mustaqillik" mahalla hududida "kichik sanoat zonasi" tashkil etilgan. Umumiy yer maydoni 5 gektar 16 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi. Hozirgi kunda elektr energiya past kuchlanishda bo'layotganligi sababli tadbirkorlar to'la hajmda ishlolmayabdi. Elektr ta'minotini yaxshilash orqali korxonalarni to'la quvvatda ishlashini ta'minlash	Choshtepa MFY	Elektr tarmoqlari tortish	Transformator o'rnatish	1	dona	2	2		760	760	
			Yo'l infratuzilmasini yaxshilash	Beton yo'l (Sementobeton)	1	km	0,6		0,6	800	800	